



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3572
2024 - yil 12 - Noyabr

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGINING
QARORI**

**O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida pedagog
xodimlar ish faoliyatining vaqt me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi **qaror qiladi:**

1. O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida pedagog xodimlar ish faoliyatining vaqt me'yorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2015-yil 2-sentabrdagi 38/QQ, 35-Q/Q-son "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchilari uchun namunaviy yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 2715, 2015-yil 23-sentabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 38-son, 505-modda, 43-son, 555-modda);

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2015-yil 21-oktabrdagi 41/QQ, 47-Q-son “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘qituvchilari uchun namunaviy yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorning 4-ilovasiga o‘zgartirish kiritish haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 2715-1, 2015-yil 27-oktabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 43-son, 555-modda).

3. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir
14-Oktabr 2024-yil
28-son



SHARIPOV
KONGRATBAY
AVEZIMBETOVICH

Vazir
02-Oktabr 2024-yil



ZAXIDOV BOTIR
ERKINOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-oktabrdagi 28-son,
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining
2024-yil 2-oktabrdagi 18-q/q-son qaroriga
ILOVA

**O‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida pedagog xodimlar ish faoliyatining
VAQT ME’YORLARI**

**1-bob. O‘rta maxsus ta’lim muassasalarida pedagog xodimlar ish faoliyatining
vaqt me’yori**

**1-§. O‘rta maxsus ta’lim muassasalarida pedagog xodimlarning
o‘quv yuklamasi vaqt me’yori**

T/r	Ish turlari	Vaqt me’yori, soat	Ish turlarining bajarilganligini aniqlash
1.	O‘quv (nazariy, amaliy, seminar va laboratoriya) mashg‘ulotlarini o‘tkazish.	O‘quv mashg‘ulotlari o‘quv rejaga muvofiq tanaffussiz ikki akademik soatdan (80 minut) o‘tkaziladi. Bir akademik soatga 1 soat o‘quv yuklamasi yoziladi.	O‘quv mashg‘ulotlarining o‘tkazilganligi o‘quv mashg‘ulotlari jurnali yoki elektron tizimda qayd etiladi.
2.	Fanlar bo‘yicha konsultatsiyalar o‘tish.	Shaxsiy ish rejasida belgilangan auditoriyadagi o‘quv soatlarining 5 foizi hajmida.	Konsultatsiyalar o‘tish jurnalida qayd etiladi.
3.	Oraliq va yakuniy nazoratlarni baholash, shuningdek o‘quvchi qoldirgan (o‘zlashtirmagan) darslarining qayta topshirilishini qabul qilish.	Har bir o‘quvchi uchun: oraliq nazoratni baholashda – 0,2 soat; yakuniy nazoratni baholashda – 0,3 soat; qoldirilgan (o‘zlashtirilmagan) darslarni qayta topshirishni qabul qilishda – 0,3 soat. O‘quvchi qoldirgan (o‘zlashtirmagan) darslarining qayta topshirilishini qabul qilishda bir o‘quv semestri davomida bir pedagog xodimga ko‘pi bilan 20 soat beriladi.	Qoldirilgan (o‘zlashtirilmagan) darslarni qayta topshirish tegishli jurnal yoki qaydnomalarda aks ettiriladi.
4.	Yakuniy davlat attestatsiyasini (bundan buyon matnda YaDA deb yuritiladi) o‘tkazish.	Bitta bitiruvchi uchun: yozma va amaliy ishga 0,2 soat, og‘zaki savol-javobga 0,3 soat va test sinoviga 0,1 soat ajratiladi. YaDA komissiyasi a’zosining bir kunlik o‘quv yuklamasi 6 soatdan oshmasligi lozim. Og‘zaki va test shaklda o‘tkazilgan YaDA sinovlarining jami soati unda ishtirok etgan	YaDAda ishtirok etish tegishli buyruq va qaydnomalarda aks ettiriladi.

		komissiyaning har bir a'zosiga beriladi. Yozma ish shaklida o'tkazilgan YaDA sinovlarining jami soati yozma ishni tekshirishda ishtirok etgan komissiya a'zolari umumiy soniga bo'linadi hamda ularga teng taqsimlanadi.	
5.	Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ochiq, muammoli, integratsiyalashgan o'quv mashg'ulotlari va master-klasslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish.	Bitta ochiq, muammoli, integratsiyalashgan o'quv mashg'uloti uchun 10 soat. Bir o'quv yilida ko'pi bilan 30 soat. Bitta master-klass uchun 10 soat. O'rta maxsus ta'lim muassasasi miqyosida o'tkazilganda bir o'quv yilida ko'pi bilan 30 soat, respublika miqyosida ko'pi bilan 40 soat, xalqaro miqyosda ko'pi bilan 60 soat.	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'tkazilgan ochiq, muammoli, integratsiyalashgan o'quv mashg'uloti va master-klasslar tegishli rejalar va ularning o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.
6.	Malaka oshirish kurslarida o'qish.	Malaka oshirish uchun bir o'quv yilida 24 soat.	Malaka oshirish kurslarida o'qiganligini tasdiqlovchi hujjat asosida aniqlanadi.
7.	Fanga ajratilgan mustaqil ishni qabul qilish.	Har bir mustaqil ishni tekshirib, qabul qilish uchun 0,2 soat.	O'quv rejadagi mustaqil ishlarga ajratilgan soat asosida aniqlanadi.

Izoh:

1) o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'quv yili bo'yicha o'quv yuklamasining soatlardagi hajmi mazkur paragrafda belgilangan vaqt me'yorlaridan kelib chiqib, pedagog xodimlarning lavozimlariga qo'yilgan malaka talablari asosida hisoblanadi;

2) o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining egallab turgan lavozimlari bo'yicha o'quv yuklamasi hajmi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining taklifiga muvofiq o'rta maxsus ta'lim muassasasining pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi;

3) o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining auditoriyadagi va auditoriyadan tashqari o'quv ishlari yuklamasining 1 (bir) stavka miqdori 1 000 soat etib belgilanadi;

4) o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'quv yuklamasi hajmi kafedra yig'ilishining taklifiga asosan o'rta maxsus ta'lim muassasasi pedagogik kengashining qarori bilan 30 foizgacha o'zgartirilishi mumkin.

**2-§ O'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'quv-metodik,
ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-pedagogik ishlarining turlari**

T/r	Ish turlari	Ish turlarining bajarilganligini aniqlash
O'quv-metodik ishlari		
1.	Darslik va o'quv qo'llanmalarni yozish.	Joriy o'quv yilida tegishli tashkilotlar (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta'lim muassasalari) tomonidan nashr etishga tavsiya etilgan darslik va o'quv qo'llanmalar asosida aniqlanadi.
2.	Uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash.	Oliy ta'lim muassasasi o'quv-uslubiy kengashi qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan uslubiy qo'llanmalar asosida aniqlanadi.
3.	Laboratoriya ishlariga uslubiy ishlanmalar tayyorlash, shuningdek virtual laboratoriya ishini tayyorlash va joriy etish.	Joriy o'quv yilida tayyorlangan hamda o'rta maxsus ta'lim muassasasi pedagogik kengashining qaroriga muvofiq ma'qullangan uslubiy ishlanmalar va virtual laboratoriya ishi ishlanmasi asosida aniqlanadi.
Ilmiy-tadqiqot ishlari		
4.	Ilmiy va ilmiy-metodik maqola, tezis yozish.	Joriy o'quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan maqola, tezislari asosida aniqlanadi.
5.	Falsafa doktori (PhD), fan doktori (DS) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlash va himoya qilish.	Avtoreferat, ilmiy daraja olish uchun dissertatsiya himoya qilganlik to'g'risidagi oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashi bayonnomasi asosida.
6.	O'quvchilarning fan, sport va ijodiy to'garaklariga rahbarlik qilish.	To'garaklarga rahbarlik qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi.
7.	Oliy ta'lim muassasasi o'quv-uslubiy va ilmiy kengashlari, seminar, konferensiyalar va vebinarlarda ishtirok etish. Tashkilotlarda ma'ruzalar qilish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, shu jumladan huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish.	Oliy ta'lim muassasasi o'quv-uslubiy va ilmiy kengashlari, seminar, konferensiyalar va vebinarlardagi ishtiroki, tashkilotlarda ma'ruzalar qilganligi, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilganligi, shu jumladan huquqiy targ'ibot ishlarini tasdiqlovchi ma'lumotlar asosida aniqlanadi.
Tashkiliy-pedagogik ishlar		
8.	O'rta maxsus ta'lim muassasasida jamoatchilik asosida yuklatilgan vazifalarni bajarish.	O'rta maxsus ta'lim muassasasi pedagogik kengashining qarori asosida aniqlanadi.
9.	O'rta maxsus ta'lim muassasasiga iqtidorli o'quvchilarni qabul qilish bo'yicha seleksiya ishlarida ishtirok etish.	O'rta maxsus ta'lim muassasasi pedagogik kengashining qarori asosida aniqlanadi.
10.	O'quvchilarni fan olimpiadasiga, shuningdek xorijiy til va umumta'lim fanlaridan xorijiy va milliy sertifikat olish uchun tayyorlash.	O'quvchilarning fan olimpiadasida ishtiroki, shuningdek xorijiy til va umumta'lim fanlaridan xorijiy va milliy sertifikati asosida aniqlanadi.

11.	O‘zaro o‘quv mashg‘ulotlari tahlilini olib borish.	O‘zaro o‘quv mashg‘ulotlariga kirish jadvali va tegishli rasmiylashtirilgan ma’lumotlar asosida aniqlanadi.
12.	Ekspert komissiyalari faoliyatida ishtirok etish.	Ekspert komissiyalarini tashkil etish bo‘yicha yuqori turuvchi tashkilotlarning hamda o‘rta maxsus ta’lim muassasasining buyruqlari asosida aniqlanadi.

Izoh:

1) pedagog xodimning o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-pedagogik ishlari hajmi – mazkur paragrafda belgilangan ish turlarini bajarish zaruriyatidan kelib chiqib, pedagog xodimning lavozimiga qo‘yilgan malaka talablari, lavozim majburiyatlari hamda u bilan tuzilgan mehnat shartnomasida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda o‘quvchilarning qobiliyat va iste’dodlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda pedagog xodimning o‘z ustida mustaqil ishlashi, o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-pedagogik ishlariga oid yillik ish rejasida nazarda tutiladi;

2) pedagog xodimlarning o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-pedagogik ishlari hajmi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarining taklifiga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim muassasasining pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

2-bob. Professional ta’lim muassasalarida pedagog xodimlar ish faoliyatining (o‘quv va pedagogik yuklamasining) vaqt me’yorlari

T/r	Ish turlari	Vaqt me’yori, soat	Ish turlarining bajarilganligini aniqlash
1-§. O‘quv yuklamasining nazariy va amaliy komponentlari – 820 soat (o‘quv rejasida)			
1.	Nazariy, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari hamda o‘quv, ishlab chiqarish va diplom oldi (pedagogik) amaliyotlarini o‘tkazish.	1 akademik soat uchun – 1 soat	O‘quv mashg‘uloti jurnali asosida.
2-§. O‘quv-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlari – 560 soat *			
2.	Nazariy, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha konsultatsiyalar o‘tish.	Nazariy, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlariga belgilangan o‘quv yuklamaning 5 foizi hajmida.	O‘quv rejada har bir fan (modul) bo‘yicha belgilangan o‘quv yuklamadan hisoblanadi. Direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosarining bildirgisi asosida.
		Bir guruh uchun YaDAda belgilangan fan (modul)lardan umumlashgan ma’ruzalar va maslahatlar o‘tkazish – 4 soat.	Professional ta’lim muassasasining pedagogik kengashi qaroriga asosan.
		Kasbiy amaliy imtihonlarga o‘quvchilarni tayyorlash – har bir o‘quvchi uchun – 2 soat.	Professional ta’lim muassasasi pedagogik kengashining qaroriga asosan ishlab chiqarish ta’limi ustasi lavozimi mavjud bo‘lmaganda nazarda tutiladi.
3.	Bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qilish,	Har bir bitiruvchiga – 8 soat, jami 120 soatgacha ajratiladi.	Professional ta’lim muassasasi rahbarining

	maslahat va taqriz berish. YaDA komissiyasi ishida ishtirok etish.	Har bir bitiruvchining bitiruv malakaviy ishiga taqriz berish – 0,5 soat. YaDA komissiyasida bir kunlik ishtiroki uchun – 6 soat.	tegishli buyrug‘i asosida.
4.	Oraliq va yakuniy baholashlarni o‘tkazish, shuningdek o‘quvchining qoldirgan (o‘zlashtirmagan) darslarini qayta topshirishini qabul qilish.	Har bir o‘quvchi uchun: oraliq nazoratga – 0,2 soat; Yakuniy nazoratga – 0,3 soat ajratiladi. Yakka tartibdagi mashg‘ulotlar olib boriladigan guruhdagi har bir o‘quvchi uchun: oraliq nazoratga – 0,5 soat; yakuniy nazoratga – 1 soat ajratiladi. Qoldirilgan (o‘zlashtirilmagan) darslarni qayta topshirishni qabul qilishda har bir o‘quvchi uchun – 0,2 soat. Bir o‘quv yilida ko‘pi bilan 20 soat. O‘quvchilarni mustaqil ta’lim ishlari bo‘yicha baholash – har bir o‘quvchi uchun 0,4 soat. Bir o‘quv yilida ko‘pi bilan 80 soat ajratiladi.	O‘quv mashg‘uloti jurnali asosida. Professional ta’lim muassasasi pedagogik kengashining qarori bilan.
5.	Ochiq darslar yoki master-klasslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish.	Bir ochiq dars uchun – 10 soat; Bir master-klass uchun – 20 soat; Master-klasslarni ommaviy axborot vositalariga yoritish – 40 soat. Bir o‘quv yilida ochiq dars uchun – 40 soat va master-klasslar o‘tkazish uchun – 80 soatdan oshmasligi kerak.	Direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan tasdiqlangan grafik asosida.
6.	Nazariy, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari hamda o‘quv amaliyotlarini o‘tkazishga tayyorlanish.	Nazariy, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishga tayyorlanish uchun – o‘quv rejadagi fanlar (modullar) yuklamasining 50 foizi; Bir fan (modul)ning ishchi o‘quv dasturini ishlab chiqish uchun – 10 soat, takomillashtirish uchun – 5 soat. Har bir fan (modul) o‘qitish materiallari to‘plamlari yoki raqamli ta’lim resurs materiallarini ishlab chiqish uchun o‘quv rejada o‘quv yili uchun	Ishchi o‘quv rejada pedagogga ajratilgan fan (modul) bo‘yicha belgilangan soatlar bo‘yicha hisoblanadi. Professional ta’lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlangan o‘qitish materiallari to‘plamlari asosida. Hammualliflikda tayyorlangan o‘qitish materiallari to‘plamlari mualliflar o‘rtasida teng taqsimlanadi.

		belgilangan soatning 80 foizi, respublika miqyosida ommalashtirish uchun 100 foizi ajratiladi.	Raqamli ta'lim resurs materiallari ishlab chiqilgan va respublika miqyosida ommalashtirilgan o'qitish materiallari to'plamlari Professional ta'limni rivojlantirish institutining tegishli mualliflik guvohnomasi asosida.
		O'qitish materiallari to'plamlari yoki raqamli ta'lim resurs materiallarini takomillashtirish uchun o'quv rejada o'quv yili uchun belgilangan soatning 50 foizi ajratiladi.	
7.	O'quvchilarni fan (modul) olimpiadasi, kasbiy ko'rik tanlovga tayyorlash.	Tuman miqyosida ishtiroki uchun – 40 soat;	Professional ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i asosida. Onlayn ishtirok etilgan ko'rik tanlovlarda professional ta'lim muassasaning pedagogik kengashi qarori asosida. Bunda, soatlarni hisobga olishda pedagog tomonidan erishilgan natija (natijalar) uchun eng yuqori bo'lgan bittasi inobatga olinadi.
		Viloyat miqyosida ishtiroki uchun – 80 soat;	
		Respublika miqyosida ishtiroki uchun – 120 soat.	
8.	Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish yoki takomillashtirish ishlarida ishtirok etish.	Bir kasb yoki mutaxassislik uchun ta'lim dasturini ishlab chiqishda ishtirok etish uchun – 100 soat, takomillashtirishda ishtirok etish uchun – 50 soat;	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i yoki topshirig'i hamda ishtirok etganligi to'g'risidagi xat asosida.
		Bir fan (modul) yoki amaliyotning namunaviy o'quv dasturini ishlab chiqish uchun bir fan (modul) yoki amaliyot yuklamasining 25 foizi, takomillashtirish uchun 15 foizi.	
		Bir fan (modul) yoki amaliyotning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish uchun bir fan (modul) yoki amaliyot yuklamasining 20 foizi, takomillashtirish uchun 10 foizi.	
9.	Ilmiy maqola yoki tezislarni yozish va nashr ettirish.	Har bir maqola yoki tezis uchun: xalqaro miqyosda – 80 soat; respublika miqyosida – 60 soat; viloyat (shahar), tuman (shahar) miqyosida – 40 soat.	Joriy o'quv yilida tayyorlangan va nashr etilgan ishlar asosida. Hammualliflikdagi maqolalarda soatlar mualliflar o'rtasida teng taqsimlanadi. Davriy to'plamlarda nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika miqyosidagi maqolalarga tenglashtiriladi. Bir o'quv yilida 180 soat ajratiladi.

3-§. Tashkiliy-pedagogik ishlar – 100 soat*			
10.	Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari oʻquvchilari, shuningdek katta yoshdagilar oʻrtasida kasbga yoʻnaltirish boʻyicha targʻibot-tashviqot ishlarini olib borish.	Bir targʻibot-tashviqot ishlari uchun – 4 soat.	Professional taʼlim muassasasining rahbari tomonidan tasdiqlangan grafik asosida va amalda bajarilgan ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosarining bildirgisi asosida.
11.	Oʻzaro darslar tahlilini olib borish.	Bitta dars uchun – 2 soat.	Dars tahlili qaydnomasi asosida.
12.	Professional taʼlim muassasasida tashkil etilgan fan, sport va kasb toʻgaraklarini olib borish.	Har bir toʻgarak uchun – 40 soat. Bir oʻquv yilida 80 soatgacha ajratiladi.	Professional taʼlim muassasasi pedagogik kengashining qaroriga binoan.
4-§. Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar – 60 soat*			
13.	Sport, madaniy-maʼrifiy tadbirlar, koʻrik tanlovlar, seminar, trening va konferensiyalar oʻtkazish va ishtirok etish.	Sport, madaniy-maʼrifiy tadbirlar, koʻrik tanlovlar, seminar, trening va konferensiyalarni tashkil qilish: respublika miqyosida – 60 soat; viloyat (shahar) miqyosida – 40 soat; professional taʼlim muassasasida – 20 soat. bir koʻrik tanlov, seminar, trening va konferensiyalarda ishtirok etish uchun – 6 soat.	Professional taʼlim muassasasining rahbarining tegishli buyrugʻi va oʻtkazilgan tadbirlar bayonnomasi asosida.

Izoh:

- 1) mazkur vaqt meʼyorlari professional taʼlim muassasalari pedagog xodimlarining ish faoliyati hajmini aniqlash uchun asos hisoblanadi;
- 2) professional taʼlim muassasalari pedagog xodimlarining shaxsiy yillik ish rejasi hamda ularning asosiy faoliyat turlariga sarflanadigan vaqt meʼyorlari oʻquv yilidagi 1540 soat miqdoridagi ish vaqtining jamlangan hisobidan kelib chiqadi;
- 3) *ushbu vaqt meyorlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga yoki taʼlim jarayoniga oid boshqa ish turlariga professional taʼlim muassasasi pedagogik kengashining qarori bilan umumiy soatlar miqdori 1540 soat doirasida 30 foizgacha oʻzgartirish kiritilishi mumkin;
- 4) oʻquvchilarning kasb boʻyicha tashkil etilgan xalqaro miqyosdagi tanlovlardagi ishtiroki uchun – 1000 soat ajratiladi;
- 5) pedagog xodimlar oʻrtasida oʻtkaziladigan xalqaro miqyosdagi tanlovda ishtiroki uchun – 500 soat ajratiladi;
- 6) faoliyatiga doir mahsulotlar va xizmatlarini xalqaro miqyosdagi koʻrgazmalarda namoyish etganligi uchun – 500 soat ajratiladi.